

«ULOQDA» HIKOYASINING NEMISCHA TARJIMASIDA MILLIY SO'ZLARNING AKS ETISHI

Rahimova Xurshida Karimboy qizi

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti Xorijiy til va adabiyoti: nemis tili
mutaxassisligi magistranti*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada romannavis yozuvchi Abdulla Qodiriyning Uloqda hikoyasidagi o'zbek xalqining kundalik turmush tarzidagi milliy ruh nemischa tarjimada qanday aks etgani tahlil qilindi*

Kalit so'zlar: *badiiy tarjima, milliy kolorit, jadid adabiyotining germaniyada o'rganilishi, realiyalar, transliteratsiya, analogiya.*

Abstract: *This article analyzed how the lifestyle of the Uzbek people in the story of the novelist Abdulla Qadiri was reflected in the German translation.*

Keywords: *literary translation, national color, spiritual activity, material activity, realia, transliteration, analogy.*

Adabiyot, san'at va madaniyat yashasa, millat va xalq, butun insoniyat bezavol yashaydi.

Shavkat Mirziyoyev

KIRISH

Bugungi globallashuv davrida badiiy tarjimaga e'tibor kuchaymoqda, chunki badiiy tarjima asliyat tilidagi matnning umumiy mazmunidan kelib chiqqan holda o'quvchiga teran va tasirchan yetkazib bergani uchun, tarjima adabiyotining salmog'i ham yil sayin oshib bormoqda. Endilikda tarjima deganda faqat muayyan bir begona tildan o'zbek tiliga kitob o'girish jarayoni emas, balki badiiy tarjimalarimiz o'zbek adabiyotining xalqaro miqyosdagi ko'p tomonlama munosabatlarini aks ettirib, ko'pincha, ma'naviy boylklarni o'zaro almashish prinsipiga asoslangan. Yevropaning, jumladan, olmon xalqining adabiy merosini o'rganish va tadqiq qilish biz uchun qanchalik maroqli va foydali bo'lsa ajdodlarimizning bizga qoldirgan bebaho ma'naviy merosi yevropaliklar uchun ham shunday ahamiyatga ega.

MUHOKAMA

Mumtoz adabiyotimizning yorqin namoyandasi, o'zbek romanchilik maktabi asoschisi Abdulla Qodiriy ijodi xalqaro miqyosda keng o'rganilmoqda. Ijodkor asarlari shu kunga qadar o'nlab tillarga tarjima qilingan va ular xalqaro e'tirofga sazovor bo'lgan. O'zbek adabiyoti darg'asi, buyuk yozuvchi, millatparvar Abdulla Qodiriy tavalludining 125-yilligi Germaniyada keng nishonlanib, uning asarlari nemis adabiyotshunos olimlari tomonidan ham keng targ'ib qilinmoqda. Germaniyaning Humboldt nomidagi universitetida o'zbek tili va adabiyoti bo'limida o'z o'rniga ega asli tojikistonlik Barno Oripova ismli muallima turkiy xalq vakili bo'libgina qolmay o'zbek xalqining tili, madaniyati va tarixi, urf-odatlarini bilan tanishligi sabab Abdulla

Qodiriyning bir qator asarlarini o'zi nemischaga tarjima qilgan. Bu tarjimalar muallimaning nafaqaga chiqishi munosabati bilan yubiley tuhfası sifatida to'plam shakliga keltirilib nashrga tayyorlanib, 2018 yilda Potsdamning «Edition tethis» nashriyotida chop qilindi. Endilikda ushbu to'plamdagi dastlabki matn «Uloqda» (Abdulla Qodiriy) hikoyasining Anna-Luize Krayvanger o'g'irgan olmoncha tarjimasining tahlili va talqiniga to'xtalsak. Bu hikoyaga Olaf Gyunterning Ohangaron tumanidagi ko'pkarida ko'rgan kechirganlariga atab yozilgan esdaliklari hikoyaning mazmunini to'ldirishda salmoqli ta'sir ko'rsatgan.

Hikoyaning nemischa nomining o'zida ham uloq so'zi keladi. Chunki bu o'yin faqat o'rta osiyoning qadimiy milliy o'yini, nemis xalqi madaniyatida bu o'yin yo'qligi sabab nemischada muqobil so'z topilmaydi. Shundan kelib chiqqan holda tarjimon asliyat tilidagi so'zning aynan o'zini tarjima tilida qo'lashdan, transliteratsiya usulida foydalanishdan boshqa iloji qolmaydi. Asliyat tilida «Ulug' hayitdagi hayitlikka oldirgan mo'g'ul egarcha bilan g'alaticha qilib toychamni egarladim». Hayit bayrami nafaqat o'zbekona balki musulmon xalqiga ulug' ayyom va uning o'ziga xos odatlari mavjud. Masalan, yangi kiyim kiyish yoki yaqin kishiga tuhfa hadya qilish kabi. Nemischa tarjimada - Ich sattelte mein junges Pferd mit dem prachtvollen mongolischen Sattel, den hatte ich mir von dem Geld gekauft, das ich zum grossen Opferfest bekommen hatte. Tarjima tilida Hayit so'zi Opferfest bilan berilgan va unga qo'shimcha malumot berilmagan. Bu holda nemis o'quvchisida noaniq mavhum tushuncha hosil bo'ladi. Nima qurbon qilinadi, nima uchun kabi savollar tug'iladi. Fikri ojizimcha, Hayitni Eid kabi tarjima qilib, qo'shimcha ma'lumot sifatida Alloh yo'lida yetim-yesir va bechoralarga sadaqa tarzida so'yib tarqatilishini keltirib o'tsa g'ayridin o'quvchida yorqin taassurot qoldirar edi. Hikoyadagi qo'y yoki mol terisidan tayyorlangan yaltiroq charmdan tikilgan Turg'unboyning «amirkon etigi» tarjimada „der amerikanische Stiefel“ yani «amerikacha etik» bo'lib qolgani tarjimaning qo'pol xatosiga aylangan. Tarjimon bu yerda balki undosh tovushlar amerika soziga o'xshatgan taqdirda ham o'zbek tilining izohli lug'atiga murojaat qilishi kerak edi. «Endi toycham g'ijinglab xuddi to'ralarnikidek bo'lib ketdi». Nemischada – Und wenn wir dann losreiten, wurde ich wie ein Edelmann auf seinem Ross aussehen – bu jumlaning nemischa variantida hukumat darajasidagi lavozim egasi ma'nosini bildiruvchi “to'ra” realiyasi xuddi shunday nemis tilidagi „Edelmann” so'zi bilan analog qilingan. Boshqa bir o'rinda ham „shayton yig'isi” yani kimnidir rahmini keltirish uchun yolg'on yig'i nemischadagi analogi “Krokodilstränen,” bilan keltirilgan. Albatta bu kabi analoglar tarjimaning mazmunini o'zgartirib yubormaydi. Yana bir o'rinda milliy kiyimimiz chopon «Mantel» tarzida tarjima qilinganiga guvoh bo'lamiz. Ustki kiyim manosida balki bir-biriga yaqin so'zlardek bo'lsada lekin chopon bu o'zbek milliy kiyimi uni Mantel bilan analog qilganda ham menimcha rasm va izohlar bilan to'ldirib o'tish kerak.

XULOSA

Nemis va o'zbek xalqlari har xil geografik va tarixiy sharoitlarda yashaydi, ularning har biri o'z tarixiy o'tmishiga ega. Bu xalqlar tili, madaniyati, turmush tarzi, urf-odatlar va an'analarida juda ko'p o'ziga xos xususiyatlar ega va bir-biridan tubdan farq qiladi. Tabiiyki, milliy kiyim-kechak, idish-tovoq, uy-ro'zg'or anjomlari, urf-odat, an'ana kabilarni bildiruvchi so'z va tushunchalarni nemis tiliga tarjima qilishda katta qiyinchiliklar tug'diradi. Har bir xalq o'z mamlakatining geografik va ijtimoiy-tarixiy sharoitiga qarab, birinchi navbatda, xalq xo'jaligining u yoki bu sohasi va o'z tabiatiga xos xalq o'yinlari bilan shug'ullanadi. Demak, ayniqsa tog'li hududlarda yashovchi o'zbeklar qadimdan uloq, ko'pkari, kurash kabi ommaviy xalq o'yinlari bilan mashhur bo'lib, "chavandoz", "qamchi", "tegirmon", "polvon" kabi sof o'zbekcha atamalarni istalgan tilga tarjima qilish juda qiyin, shu jumladan nemis tiliga ham. Bunday vaziyatda tarjimon milliy ruhni saqlagan holda, o'quvchiga boshqa bir xalqning etnik tipik turmuz tarzini yetkazib beradi, uning ongini yangi obrazlar bilan boyitadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Barno Oripova. Abdulla Qodiriy und seine Zeit. Potsdam 2018.
2. Q. Musayev. Badiiy tarjima va nutq madaniyati. Toshkent 1976
3. G'aybulla Salomov. Tarjima nazariyasiga kirish. Toshkent 2023
4. Р.Файзуллаева Национальный колорит и художественный перевод. Т. 1979
5. O'zbek tilining izohli lug'ati. Toshkent 2006
6. Abdulla Qodiriy. Uloqda. (hikoya) Ziyouz.com